

HAMID OLIMJON ASARLARIDA SOMATIK KOMPONENTLI IBORALAR LINGVOPOETIKASI

Imamova Gulnora Talibovna,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annatsiya. Somatizmlar inson tana a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan iboralar bo'lib, inson tana a'zolari orqali fikrni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada shoir Hamid Olimjon asarlarida qo'llanilgan somatik iboralarning lingvopoetik tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: somatik iboralar, frazeologik birliklar, somatik frazeologizm, ekspressivlik, lingvopoetika, emotsional, bo'yoqdorlik.

Аннотация. Соматизмы – это выражения, используемые в связи с частями человеческого тела и служащие для образного выражения мыслей через части тела. В данной статье рассматривается лингвопоэтический анализ соматических выражений, используемых в произведениях поэта Хаида Олимджона.

Ключевые слова: соматические выражения, фразеологические единицы, соматический фразеологизм, выразительность, лингвопоэтика, эмоциональность, красочность.

Abstract. Somatisms are expressions used in relation to human body parts and serve to figuratively express thoughts through human body parts. This article covers the linguopoetic analysis of somatic expressions used in the works of the poet Hamid Olimjon.

Keywords: somatic expressions, phraseological units, somatic phraseologism, expressiveness, linguopoetics, emotionality, colorfulness.

Kirish. O'zbek tilida so'zlovchining turli his-tuyg'ularini, hayajonlarini, xarakter-xususiyatini ifodalovchi birliklar sirasiga xalq donishmandligining namunasi – iboralarni ham kiritish mumkin. Ma'lumki, iboralar ikki yoki undan ortiq so'zlarning turg'unlashgan birikmasi bo'lib, yaxlit bir ma'noni ifodalaydi. So'z orqali aytilmoqchi bo'lgan ma'no, tushuncha, fikr iboralar orqali obrazliroq aks etadi. Iboralar tarkibidagi komponentlarning asos ma'nosidan yuzaga kelgan frazeologik ma'noda emotsional-ekspressivlik aks etib turadi. "Frazeologizmlar so'zlarga nisbatan ma'noni kuchli ifodalaydi. ...Frazeologizmlar faqatgina ma'noni kuchli ifoda qilib qolmasdan u bilan birga shu ma'noni obrazli ham ifodalaydi. Obrazlilik frazeologizm komponentlaridan birining yoki umumiy birikmaning ko'chma ma'noda ishlatilishi asosida yuzaga keladi" [4.10–118]. Tilshunos olim Abdug'afur Mamatovning mazkur fikrlari frazeologik birliklarni lingvopoetik vosita sifatida o'rganish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Somatik frazeologizmlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari tilshunoslikda muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, A. Hojiyev, A. Mamatov hamda Sh. Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda frazeologik birliklarning semantik, stilistik va obrazlilik xususiyatlari, ularning nutqdagi ekspressivlikni kuchaytirishdagi o'rni asoslab berilgan. Xususan, U. Rashidova va A. Isaev ishlarida somatik komponentli iboralarning semantik-pragmatik jihatlari hamda ularning milliy tafakkur bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, badiiy matnlarda

somatizmlarning qo‘llanishi orqali muallif individual uslubi va qahramon ruhiyatini ifodalash imkoniyatlari alohida ta’kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lingvopoetik, semantik-stilistik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Hamid Olimjon asarlaridagi somatik frazeologizmlar tanlab olinib, ularning badiiy matndagi funksiyasi va ifoda imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirilib, somatik iboralarning poetik yuklamasi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Sevimli shoirimiz Hamid Olimjon she’rlarida tilning ushbu boyliklaridan badiiy maqsadini ifolash vositasi sifatida faol qo‘llanganligining guhovi bo‘ldik:

*Qayga borsa o‘sha qoshida,
O‘n to‘qqizga kirgan yoshida,
Shamol tekkan gul bargi kabi,
Uning qalbi dir-dir titradi.
Sevaganini biladi xalos,
Faqat nechun? Qaydadir asos,
Axir kimdir ko‘ngil qo‘ygani,
Qaysi barno shuncha sevgani,
Nimasi bor, nimasi yoqar,
Qaysi otash qalbini yoqar.*

“Zaynab va Omon” dostonidan olingan ushbu parchada shoir “ko‘ngil qo‘ygani” iborasini ishlatgan. Ot+fe‘l modelidagi mazkur ibora yaxlit holda sevgani ma’nosini bildiradi. Shoirning mahorati shundaki, qahramonning sevgisi tasvirida leksik-frazeolgik sinonimiyadan foydalangan: “Axir kimdir ko‘ngil qo‘ygani, Qaysi barno shuncha sevgani” misralarda ko‘ngil qo‘ygani -sevgani birligi sinonimlikni yuzaga keltirgan.

Frazeologizmlarni o‘rgangan tilshunoslar nuqtayi nazaricha, tilda eng ko‘p uchraydigan frazeologizmlar – somatik komponentli iboralar hisoblanadi. [4.23–118]

Biz ham Hamid Olimjon she’rlaridagi “ko‘z bilan bog‘liq”, “bosh bilan bog‘liq”, “qo‘l bilan bog‘liq”, “ko‘ngil, yurak, bag‘ir bilan bog‘liq” frazeologizmlarning lingvopoetik tahlilini amalga oshiramiz.

*Uyqudan uyg‘onib xon
Oygulni so‘ramadi,
Zindonga tashlangan jon
Ne bo‘ldi ham demadi.
Ichdan sevinib Tarlon
Yurarkan u yon -bu yon,
Hech narsadan bexabar
Ko‘z ko‘r, qulog‘i kar*

Bo‘lib ko‘rinar edi,

Tinmay urinar edi.

“Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonidan olinga ushbu parchada Tarlonning ruhiy holatini tasvirlashda “ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar” frazeologizmidan foydalanilgan. Zolim xon Oygulni zindonga tashlagach, esidan chiqaradi. Oygulning otasining vafotidan qattiq ta’sirlangan Tarlon chol Oygulni zindondan qutqarib, daryoga sandiqqa solib oqizib yuboradi. Va xon Oygulni so‘rab qolmasmikan deb bir tomondan xavotirlansa, ikkinchi tomondan o‘zini bilmaganga solib, “ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar” bo‘lib, ya’ni hech narsani ko‘rmaganday, eshitmaganday, bilmaganday tutib, lekin uni qutqargani uchun xursand kayfiyatda yurgani tasvirlangan.

“Ko‘z komponentli frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his-hayajonini, fiziologik jarayonlarni ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural jihatdan ot+fe‘l tuzilishiga ega bo‘lgan ikki hamda uch komponentli fe‘l iboralardir: “ko‘ziga ko‘rinmoq”, “ko‘ziga yaqin ko‘rinmoq” [5.12–52]

“Ko‘z” somatik oti bilan shakllangan frazeologizmlardan Hamid Olimjon she‘rlarida badiiy tasviriy vosita sifatida unumli foydalangan. Xususan, xalqimizda farzandini erkalash, yaxshi ko‘rish, duo qilish uchun ishlatiladigan “ko‘zim qorasi” frazeologizmi ana shunday iboralar qatoriga kiradi:

Xayr, o‘g‘lim, oq yo‘l bo‘lsin,

Xayr, ko‘zim qorasi.

Bilkim: jangda bilinadi

Mard yigitning sarasi. (Yigitlarni frontga jo‘natish)

Ushbu parchada o‘g‘lim undalmasiga sinonim sifatida qo‘llanilgan “ko‘zim qorasi” frazeologizmidan, farzandini suyish, erkalash ma‘nosi bilan birga, unga maslahat va motivatsiya berish mazmuni aks etgan. Farzand necha yosh bo‘lsa ham onasi uchun yosh boladay bo‘ladi degan fikrga tayansak, onaning o‘z farzandini “ko‘zim qorasi” deb erkalashi tabiiy, lekin Vatan himoyasiga otlanayotgan farzandining endi yosh bo‘la emas, yigit bo‘lganini ham eslatmoqda.

Shuningdek, “ko‘z qiri bilan qaramoq”, “ko‘z tikmoq”, “ko‘z tashlamoq”, “ko‘z ochib ko‘rmoq”, “ko‘z oldimda”, “ko‘z suzmoq”, “ko‘z ochmoq”, “ko‘z tikmoq”, “ko‘z ko‘rgan, bosh oqqan yoqqa” kabi ko‘z komponentli iboralardan foydalangan.

Har bir xalqning frazeologik birliklari, maqol va matallarida shu xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosliklari, mentalitetiga xos qadriyatlar, an‘analari aks etishi bor gap. Dono xalqimiz hali yozma adabiyot shakllanmagan zamonlarda ham xalq dostonlari, ertaklari, rivoyat va afsonalarda mazkur til birliklaridan foydalanishgan. Xususan, xalqimizda “bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” turg‘un birikmasi ham mashhur. Hamid Olimjon she‘rlarida, dostonlarida “bosh” somatik oti bilan shakllangan frazeologik birliklar qahramonlar xarakterini, ruhiy holatining tasvirini berishda ishlatilgan.

“Kimlar o‘ldi, kim omon?”
 Darxon so‘z boshlab dedi:
 “Men va qizimdan boshqa
 O‘lmagan qul qolmadi,
 Kirib shunchalik yoshga
 Ko‘rmovdim shuncha qonni,
 Shuncha zor-u fig‘onni.
 El xonumonin butkul
 Sen o‘t yoqib etding kul.
 Jambil edi bir bo‘ston
 Qilding uni go‘riston
 Senday qonxo‘r zolimdan
 Qolmasin deb birar zot
 Bosh ko‘tardik, zulmdan
 Bo‘lmoqchi edik ozod”. (Oygul bilan Baxtiyor)

Ushbu misralarda “bosh ko‘tardik” frazemasi ishtirok etgan. Mazkur mikromantga juda mos ravishda qahramonlarning xonning qilmishlaridan norozi ekanligini, ozodlik uchun kurashayotganiligini, unga va zulmga qarshi norozilik bildirayotganligi ifodalash maqsadida “bosh ko‘tardik” iborasi qo‘llanilgan, ya‘ni sening shuncha zulmingga biz qarshimiz deya, Darxonning, qizi Oygulning va butun xalqning nafratini iborada namoyon etgan.

“Frazeologizmlar o‘z sinonimlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, birinchidan, ma‘noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega”. [2.180]

Darhaqiqat, so‘zlarga nisbatan frazeologik birliklarda obrazlilik, tasviriylilikning kuchli bo‘lishi badiiy matnlarda aynan yozuvchi yoki shoirlar tomonidan aytilmoqchi bo‘lgan fikrni, maqsadni tinglovchiga go‘zal yetkazish vositasichi bo‘lishining sababi hisoblanadi.

Hisob emas hujum chog‘i,
 Quyosh kabi qizmasam,
 Nafasimdan olov purkab,
 Yov safini buzmasam.
 Ona, mendan xavf qilma hech,
 Dadil bo‘l, ayla bardosh,
 Vatan uchun jang qiluvchi,
 Mard o‘g‘lingning boshi tosh. (Xat)

Ushbu matnda qo‘llanilgan “boshi tosh” iborasi asli xalq tilida “bosh (i) toshdan”, “bosh (i) toshdan bo‘lsin”, “boshi toshdan bo‘lsa” kabi ishlatiladi va turmush mashaqqatlariga bardoshli degan ma‘noni bildiradi. Ayniqsa, onalarimiz bolalarini uzoq

safarlarga yuborayotgan pallada bu iborani duo sifatida qo‘llaydilar. “Boshing toshdan bo‘lsin, bolam” tarzida. She‘riy parchada jangchi yigit tilidan aytilgan iborada ham ana shu onaning duosi uni asrayotganligiga ishora bor, desak ayni haqiqat bo‘ladi. Bu iborani aytish bilan jangchi yigitning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham tasvirlangan.

Hamid Olimjon she‘rlarida “bosh” komponentli “bosh bilan javob bermoq”, “boshiga kelmas”, “boshdan oyoq” kabi somatik frazeologizmlar qahramonlar ruhiyatidagi turli his-tuyg‘ularni ifodalashga yordam bergan.

Frazeologizmlar bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan tilshunos Sh.Rahmatullayev o‘zbek tilida “qo‘l” komponentli 70 ga yaqin frazeologizmlarning ma‘nosini izohlagan. Boshqa somatik komponentli iboralar singari “qo‘l” komponentli iboralarda ham shu millatning ruhiy olami va turli xil his-tuyg‘ulari ifodalanadi.

U jim bo‘ldi, bir lahza betin,

Ixtiyorin qo‘liga oldi,

So‘ylamoqchi... va undan oldin

Soya turib so‘z boshlab qoldi. (Butun olam bir oppoq siyna)

Ushbu she‘riy parchada “qo‘liga oldi” iborasi badiiy-tasviriy vosita sifatida qo‘llanilgan. Mazkur ibora tildagi ko‘p ma‘noli ibora hisoblanadi. “Qo‘lga olmoq iborasi to‘rtta ma‘noni anglatadi: 1) “o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq”; 2) “qo‘qqisdan hujum qilib bosib olmoq”; 3) “hibsga olmoq”; 4) “o‘z xohishiga bo‘ysunadigan qilmoq”. Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo‘lganidek, bosh (asos) ma‘no va yasama (hosila) ma‘no farqlanadi. Leksik polisemiyada asos ma‘no to‘g‘ri ma‘noga, hosila ma‘no esa ko‘chma ma‘noga teng. Frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, asos ma‘no ham ko‘chma ma‘no (obrazli ma‘no) bo‘ladi. Chunki har qanday frazeologik ma‘no, ta‘kidlanganidek, ustama, ko‘chma ma‘no sifatida yuzaga keladi” [6. 636 -14] Tilshunoslarning ushbu fikriga ko‘ra Hamid Olimjonning yuqoridagi misralarida “qo‘lga olmoq” iborasidan oldingi “ixtiyorin” so‘zi bilan birgalikda ko‘p ma‘noli iboraning asos ma‘nosini tashkil qilmoqda.

Qo‘lga tushdim tayin deb,

Oygulni aldayin deb,

Faqat yolg‘on so‘yladi.

U dediki: “Bir kunga

Muhlat olgan yorimni

Qo‘ldan berdim va unga

Qurbon qildim borimni.

Yerga otdim torimni,

Tutaqtirib zorimni,

Misoli bir qalandar

Izlab keldim darbadar.

Sen meni demasmisan?

Oygulim emasmisan?"

“Oygul bilan Baxtiyor” ertak dostoni qahramoni Jarjonning alamzada podshosi tilidan aytilgan ushbu she’riy parchada ikkita “qo‘lga tushdim”, “qo‘ldan berdim” iboralari uchraydi. Mazkur iboralar shakily jihatdan “ot+fe‘l” shaklidagi ikki komponentli somatik frazeologizmlar hisoblanadi. “Qo‘lga tushdim” iborasi ushlandim, tutuqun bo‘ldim ma’nosini ifodalagan. Va mana shu tutqunlikdan makkorlik bilan chiqib ketish yo‘lini izlaydi. Qachondir Oygulni tutqun qilib, o‘ziga xotin qilib olmoqchi bo‘lgan chol, bugun unga yalinib, yaltoqilik qilib turibdi. Ana tasvir uchun shoir tildagi so‘zlardan emas, frazeologik birlikdan foydalanishni ma’qul ko‘rgan. Bu nutqdagi “qo‘ldan berdim” iborasi “qo‘ldan chiqarmoq”, “boy bermoq” iboralariga sinonim hisoblanadi va o‘zida bor narsani, shaxsni yo‘qotmoq ma’nosini ifodalaydi. Mazkur matnda esa Jarjon xoni Oygulni yo‘qotganini, bundan qattiq afsus chekkanini, o‘zining podsholigini qo‘yib, qalandar sifat bo‘lib uni izlab kelganini so‘zlaydi. Mazkur iboralar qahramonning ruhiyatini, avvalo, uning makkorligi, zulmkorligi, yomon niyatlarini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Shuningdek, Hamid Olimjon she’riy asarlarida “qo‘l solib ko‘rmoq”, “qo‘lga olgan”, “qo‘ldan berilgan”, “qo‘limdan kelganini qildim” kabi “qo‘l” somatizmi bilan bog‘liq iboralar emotsional-ekspressivlik ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Xulosa. Demak, Hamid Olimjonning she’riy asarlarida frazeologik birliklar, xususan, somatik frazeologik birliklar millatning mentalitetini, urf-odatlarini, an’analari ifodachisi sifatida, shuningdek, qahramonlar ruhiy holati, emotsional-ekspressivlik ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida faol qo‘llanilgan. Ayniqsa, “bosh”, “ko‘z”, “qo‘l”, “yurak”, “bag‘ir”, “til”, “yuz” somatizmi bilan bog‘liq frazeologik birliklar qahramonlarning xarakteri, yaxshiligi, yomonligi, ayyorligi, zulmkorligi, donoligi kabi xususiyatlari, hissiyotlarini ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хамид Олимжон. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи: Сарвар Азимов. – Тошкент: Давлат нашриёти. 1951. – 561 б.
2. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. “Фразаеология”. Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б.180.
3. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – С.24.
4. Маматов А. Фразаеологик стилистика масалалари. Toshkent: 1991.
5. Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида). Филол. фанл. бўйи.фалс.докт. (phd) дисс... автореф. – Самарканд. 2018.
6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2022. – 636 b.